

YUMSHOQ BUG'DOYNI JAHON KOLLEKSIYA NAMUNALARINI O'SUV DAVRLARI

Alloberganova Z.B - UrDU dotsent,

Sa'dullayeva G.U - UrDU magistr,

Atajanova K.S- UrDU talaba,

Qadamboyeva G.J- Yangibozor tumanidagi 10-son ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10063940>

Annotasiya. Ushbu maqolada Xorazm tuproq iqlim sharoitida yumshoq bug'doyning jahon kolleksiya namunalarini morfo-fiziologik belgilariga muhitning ta'siri o'rganilgan bo'lib, unda namunalarining o'suv davrlari va biologik xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'simlikshunoslik, bog'dorchilik, uzumchilik, qurg'oqchilik, yovvoyi tur, hosildorlik, yumshoq bug'doy, areal.

Bug'doy dunyodagi eng keng tarqalgan donli ekinlar sirasiga kiradi. Bug'doy - har qanday davlatning qishloq xo'jaligi bozori barqarorligini va oziq-ovqat xavsizligini ta'minlashda eng muhim strategik mahsulotdir. Yumshoq bug'doy dunyoda hosildorlik jihatidan ikkinchi o'rinda tursada, lekin ekin maydonlari bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi.

Yer yuzida o'tgan asrning ikkinchi yarimidan boshlangan ekologik o'zgarishlar ayniqsa, Janubiy Orol dengizi qirg'oqlarida joylashgan O'zbekiston respublikasining go'zal va ajralmas bo'limi hisoblangan Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida o'zining eng kuchli tasirlarini ko'rsata boshladi. Bu ko'rinishlar qishloq xo'jaligining muhim sohalaridan hisoblangan o'simlikshunoslik, bog'dorchilik, uzumchilik va boshqa sohalarida sezilarli darajada salbiy ko'rinishlarni nomoyon qila boshladi. Bundan tashqari oxirgi suv tanqisligi yillarida respublikamizda ko'pgina madaniy va yovvoyi turda o'sadigan o'simliklar dunyosining soni va sifati, hajmi va tarqalish areallari kamayib ketdi.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi o'simliklarini ayniqsa, bug'doyni maxalliy iqlim sharoitlariga moslashgan, issiqlikka va qurg'oqchilikka chidamli navlarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbekiston respublikasini "2022-2026 yillarga mo'ljallangan tarqqiyot strategiyasida "Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish" vazifasi qo'yilgan.

Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda Xorazm tuproq iqlim sharoitida yumshoq bug'doyning jahon kolleksiya namunalarini morfo-fiziologik belgilariga muhitning ta'sirini o'rganish maqsadida Paxta selektsiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot institutining Xorazm paxtachilik ilmiy tajriba stantsiyasi dalalarida sug'oriladigan hududlar uchun fakultativ va kuzgi bug'doy ko'chatzorlardan olingan namunalar ekilib, namunalarining o'suv davrlari va biologik xususiyatlari o'rganildi.

O'suv davri davomiyligining qulay ob-havo sharoitlarida o'simliklarning mahsuldorlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi barchaga ma'lumdir. Yumshoq bug'doy o'simligining o'suv davri davomiyligi nafaqat hosildorlikni belgilaydi, balki o'simlikning qurg'oqchilikka, kasalliklarga va tashqi muhitning stress omillariga chidamliligini namoyon qiladi.

Global iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan qurg'oqchilik va haroratning ko'tarilishi barcha qishloq xo'jalik ekinlari qatori bug'doy yetishtirishga ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa bug'doyning don to'lishish fazasida haroratning optimal darajadan ko'tarilishi, namlikning yetishmasligi donning fiziologik to'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muommalarni ilmiy jihatdan asoslashda asosan genetik jihatdan hilma-xil shakllarni noqulay ekologik sharoitlarga moslashuvchanligini, mahsuldorligini turli xil kasalliklarga chidamliligini, vegetatsiya davrlarni o'rganish seleksiyaning amalyotdagi muhim vazifasi hisoblanadi

Bug'doyning unib chiqish fazasi hosil uchun muhim ahamiyatga ega, chunki xuddi shu fazada murtak ildizcha faoliyati susayib, asosiy ildiz tizimi shakllanadi. Umuman biologik jihatdan tezpushar bo'lgan bug'doy navlari mamlakatimizning turli tuproq-iqlim sharoitlarida dehqonchilikni intensivlashtirishga imkoniyat yaratadi. Olib borilgan ko'pgina ilmiy tadqiqotlarda yumshoq bug'doy namunalari baholashda ularning unib chiqish-boshoqlash davrlari davomiyligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan.

O'rganilgan yumshoq bug'doy namunalari unib chiqish-boshoqlash davri muayyan bir uyg'unlikda o'zgarib turadi. Bug'doy namunalari unib chiqish-boshoqlash d

a Shuningdek, bug'doy o'simligining ertapisharligi asosan boshoqlash fazasiga qarab belgilanadi. Namiunlarning tabiiy iqlim sharoitlariga bog'liq holda boshoqlash davri 7-9 kungacha o'zgarib turadi. Unib chiqish boshoqlash davri davomiyligi Respublikamiz sharoitida ekish muddatlari va navning biologiyasiga ko'ra 160-225 kunni tashkil qiladi.

o **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Abdullaev S.A., Boirov A.J., Sattorov J.S. Xorazm viloyati tuproqlari. - Toshkent: Fan, 2002. - B.190
2. Atabaeva X.N.Azizov B. „Bug'doy“ Toshkent 2008 y.
3. Кумаков В.А., Евдокимова О.А. Биологические аспекты выхода зерна в урожае пшеницы // Вестник РАСХН. 2000. №4. - С. 16-17.
4. Qurbonov G', Bo'riev X. Jaxonda va O'zbekistonda don yetishtirish. UzAFX, 2002 №1 (7) 22- bet.

s
u
t
k
a
l
i
k

h